XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, +998 62 385 5336,
Xalq_deputatlari_Yangiariq_tumani_kengashi24@gmail.com

2026-yil 31-mart VII-25-40-12-179-K/26 Yangiariq tumani

2026-yilda Yangiariq tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalarga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “V”-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Yangiariq tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangiariq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari S.Jabbarov, tuman soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Ushbu qaror tuman hokimligining “Yangiariq ovozi” gazetasida e’lon qilinsin.

5. Tuman hokimining axborot xizmati, ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Azimov;

- mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy vebsaytiga joylashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Ollaberganov zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab uch oy o‘tib kuchga kiradi.

Kengash raisi **ABDULLAYEV BAXTIYOR OLIMOVICH**

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2026-yil 31-martdagi
VII-25-40-12-179-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Yangiariq tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		bazaviy stavka O‘RQ-1105 25.12.2025-y. (boshqa aholi punktlari)	Oshirilgan stavka foizi va summasi	2026-yil uchun yig‘im stavkasi (boshqa aholi punktlarida)
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	20 foiz, 60 000	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	20 foiz, 30 000	180 000